

## SHOYI GAZLAMALAR ISHLAB CHIQRILISHI TARIXI

**Xoliqova Mahliyo Alisher qizi**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy  
rassomlik va dizayn instituti, tayanch doktorant,  
[xmahliyo@gmail.com](mailto:xmahliyo@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Tarixchilar yozishmalaridagi mato, gazlamalar haqida bayonnomalar. Allomalar ma'lumotiga ko'ra matolar ishlab chiqarilishi va matolar nomi eksport qilinishi. Rus etnograf muzeyidagi eksponatlar, Buxoro baxmali, Qarshi olachasi, gul bosish san'ati, kashtachilik namunalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Zandanachi, baxmal, shoyi, mato, gazlamalar to'qish, kashta, olacha, kalami, karbos.

### ABSTRACT

Statements about fabrics, fabrics in the correspondence of historians. According to allomas, the production of fabrics and the export of the name of fabrics. The exhibits in the Russian Ethnographic Museum, Bukhara bakhmali, Karshi olacha, the art of flower printing, embroidery samples were reflected.

**Keywords:** Zandanachi, velvet, silk, fabric, gauze weaving, embroidery, olacha, kalami, karbos.

O'rta asrlarga kelib, matolar, jumladan, mahalliy badiiy shoyi to'qish usullari paydo bo'ldi. Bunday matolarning ahamiyati oshib, chetdan keltirilgan matolar kabi keng qo'llanilishi kuzatiladi. Bunday ma'lumotlarni devoriy suratlarda ham, jumladan, erkaklar libosida turli xil shoyining yeng va etak qismida ishlatilganligini ko'rish mumkin. Asosan, erkaklar kiyimi ichidan kiyiladigan ko'ylak, chopon-chakmon, yelkaga tashlanadigan yopinchiq, shim va etikdan iborat bo'lgan. Erkaklar ko'ylagining taqilmasi tugmali ham bo'lgan.<sup>1</sup>

S.M.Mahkamovaning ma'lumoti bo'yicha qadimgi zamonda O'rta Osiyoda to'qimachilik rivojlangani to'g'risidagi ma'lumotlar arab va fors jug'rof va tarixchilari al-Muqaddasiy, Narshaxiy, Ibn-Xavkal asarlarida uchraydi.

---

<sup>1</sup> H.H.Kamilova, Z.I.Rahimova, U.S.Raxmatullayeva. O'zbek milliy libosi va an'anaviy qadriyatlar. Monografiya Toshkent 2018y

Ularning ma'lumotlari allaqachon aniq haqiqat bo'lib, yagona edi. Ular quyidagilarni bayon etishgan.

Buxoro, Marv, Samarqand va boshqa O'rta Osiyo shaharlarida yung, ip, shoyi va zig'ir gazlamalari faqat ichki bozorga emas, eksportga ham ishlab chiqarilardi. Tashqi bozor uchun qurama yoki, arablar so'zi bo'yicha, aralashma gazlamalar va kimxobni ishlashgan.

AI-Muqaddasiyning ma'lumotiga ko'ra O'rta Osiyo shaharlaridan olib chiqilgan mollar ro'yxatida quyidagilar aytilgan: "tabaristonlilo", "sinizi", «ushmanaylik qizil» (mamrdjal).

Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra Buxoroda maxsus gazlamalarni eksportga ishlashgan: oq, qizil, yashillari hattoki Rim va Misrda qo'llanilardi. Keyinroq ularning o'rniga "zandanachi" keng tarqalgandi.

Marv va Buxoroda xalifa xazinasida saqlanadigan to'qima buyumlarni ishlash uchun maxsus ustaxonalar «beyr at-tiraz» bo'lgan. Bu ustaxonalarning mahsuloti xalifalik to'qimachilari uchun tipik bo'lgan: gilam, sholcha, mehmonxona poliga solinadigan gazlamalar, gulli pardalar, dekorativ yostiq uchun jild va joynamozlar bo'lgan. Beyt at-Tirazdagi ustalarning mahorati juda yuqori darajada bo'lganligini quyidagi ma'lumotlar isbotlaydi: «bitta pardaga Buxoroning yer solig'ini butunlay berish mumkin edi» (Narshaxiy, 1897, 29 b.). Buxoro ustaxonalarning keyingi taqdiri to'g'risida Narshaxiy quyidagini aytgan: «Ammo vaqt kelib, bu ustaxona berkildi, gazlama ishlab chiqarilmaydigan bo'ldi va ushbu gazlamani ishlagan ustalar har tomonga tarqab ketdi... Shunisi ajoyibki, Buxoro ustalari Xurosonga ketib, shu gazlamani to'qish uchun barcha to'quv asbob-uskunalarini o'zi bilan olib ketishgan va shu yerda; to'quv ustaxonalarni barpo etishgan, ammo turi va sifati bo'yicha Buxoroda ishlangan gazlamalariga teng kela olmagan». Marvdan ipak qurti urug'idan o'zida ishlangan mahkam shoyi ipi - «abrishim» va «mulxam», «shohijahon» gazlamalarini yetkizib bergan.

Savdo doirasiga kirgan qishloqlar ma'lum: Zandana, Vardana, Iskajkent, Dabusiya, Darzengi va boshqalar. Zandana va Vardanada «zandanachi» va «vadoriy» nomli ip gazlamalari ishlab chiqarilardi. Bu ikkita gazlama dunyoga mashhur bo'lib, kimxob bahosiga sotilardi. Ularni boshqa joylarda ham ishlashardi.

O'rta Osiyodan tayyor kiyimlar (yo'l-yo'l gazlamalar va movutdan), ayollar kiyimi uchun yengil shaffof gazlamasi, ro'mollar va bo'yoqlar (ruyon) olib chiqilardi.

Bolaliktepa, Varaxsha, Panjikent va Afrosiyob qazilmalaridan topilgan devoriy tasviriy yodgorliklar yangi ma'lumotlarni qo'shdi. Ziyofat,

qabul marosimi va sayohatlarda ishtirok etuvchilarning boy tantanali liboslarini va boshqa to'qima buyumlarini (gilam, ot yopinchig'i) ilk o'rta asr manzaralari tasvirlangan. Shu tariqa So'g'd aslzodalari liboslarida qo'llanilgan gazlamalarni tahlil etish imkoniyati tug'ildi.

Belgiyadagi Yui shahri soboridagi gazlamaning ("hayot daraxti"ni ikki tomonida ikki qo'y tasvirlangan) teskarisidagi yozuvni o'qilishi juda muhim ma'lumot bergandi. Amerika olimlari - qadimiy gazlamalar bo'yicha tarixchi D.Shepred va eronshunos B.Xenning so'g'd tilida tush bilan qilingan yozuvni o'qishgan. Deshifrovka natijasida gazlamaning nomi «zandanachi» bo'lgani ma'lum bo'ldi. O'rilish usuli va bo'yoqlar tahlili tufayli dunyo muzeylaridagi bir qator gazlamalarni avval Sosoniy yoki Vizantiya gazlamasi hisoblanganlari endi zandanachi ekanligi tasdiqlandi.

A.M.Belenitskiy va I.B.Bentovich tarixiy yodgorliklar (yozma va arxeologik) asosida arab istilosidan XVII asrgacha zandanachining tarixini tadqiq etishdi (Belenitskiy, Bentovich, 1961y.). Bir necha yil keyinroq (1967 - 1972 yy.) A.A.Ierusalimskaya D.Shepredning ma'lumotlariga ko'ra, Shimoliy Kavkaz qabristonida topilgan gazlama namunalarning bir qatori (200 shoyi namunadan ko'pchiligi) so'g'd naqshli gazlama ekanligi aniqlandi. A.A.Ierusalimskaya bir qator maqolalarida so'g'd shoyilari bilan bog'liq savollarni ko'tarib (tarixiy, iqtisodiy, tarixiy-madaniy, texnikaviy va badiiy), So'g'dda ipakchilikni paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi batafsil yoritgan.

Ammo Narshaxiyning ma'lumotlari va keyingi ma'lumotlarga ko'ra, topilgan zandanachilar shoyi emas, ip gazlama bo'lgan. S.M.Mahkamovning fikri bo'yicha, bu aslida zandanachi shoyi va ip gazlama bo'lgan.

Kushon davrida paydo bo'lgan Buyuk ipak yo'li O'rta Osiyodan o'tib, Markaziy Osiyoni Vizantiya bilan bog'lardi. Xitoy va G'arb mamlakatlari bilan savdoda O'rta Osiyo faqat dallol bo'lmasdan, ko'p mahalliy gazlamalarini shu qatorda shoyi gazlamalarini ham olib chiqishardi. Ehtimol, So'g'dda shoyi gazlamani birinchi bo'lib Zandana qishloq ustalari to'qishgandir. Zandanachi shoyiga talab ko'p bo'lgani uchun Buxoro ustalari bozorga tushgan o'z gazlamalariga zandanachi deb nom berishgan bo'lishi ham mumkin.

"Ipak yo'li" tushunchasi o'tgan asrda qadimgi dunyo nuqtai nazaridan ulug'vor bo'lgan savdo yo'lini, to'g'rirog'i, eski va yangi davrlar o'tishi bilan nisbatan barqaror bo'lgan bir-biriga bog'langan butun yo'llar tarmog'ini belgilash uchun paydo bo'lgan. - ipakning vatani, Xitoy, Yaqin Sharq va "G'arbiy", Sharqiy O'rta yer dengizi mamlakatlari (Rim, keyinchalik Vizantiya, Misr, Suriya).

XVI-XVII asrlar davomida Movarunnahrda to‘qilgan ip-gazlama hamda ipak matolar chegaradosh mamlakatlarda katta qiziqish bilan xarid qilingan. Qadimiy ramziy va tasviriy bezakli matolar naqshinkor bezakli matolarga o‘rmini bo‘shatib bergan, turfa rangli yo‘l-yo‘l o‘simliksimon, handasaviy, va mavzuli naqshlar ustuvorlik kasb etgan.

Ularning eng qadimiylari XIX asrning 60-yillariga mansub, ammo o‘zining an’anaviy qiyofasini saqlab qolgan hunarmandchilik matolarining aksariyat qismi 1880-1890 yillarga tegishlidir. Ular ip-gazlama, yarim ipak, ipak matolarini o‘z ichiga oladi. Rus etnografik muzeyining to‘planmasida namoyish etilgan ip-gazlama matolar orasida bo‘yalmagan kalavada to‘qilgan mato = karbos, yo‘l = yo‘l naqshli mato - kalami, yanada sifatli va rang = barang bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan olacha kabi matolar ro‘zg‘orda keng foydalanilgan. Olachaning muzeydagi namunalari bum atoning deyarli barcha hududiy ko‘rinishlarini namoyon qiladi, texnologik xususiyatlari, yo‘l – yo‘l tasvir kompozitsiyasiga ko‘ra uning Buxoro, G‘ijduvon, Samarqand, Urgut Nurota Qarshi Kitob, Shaxrisabz, Toshkent Xiva Qo‘qon Namangan Andijon va ushbu shaharlarga yaqin qishloqlarda yaratilgan turlari mavjud.

1920-yillar boshida ham xususiy mulk va shaxsiy mehnat faoliyatiga barham berilgani tufayli, amaliy san’atning iqtisodiy asosiga putur yetgan edi. Shu asnda tabiiy iqtisodiy tayanchidan mahrum hunarmand ustaning ijtimoiy maqomi pasayib ketdi. O‘z mahsulotlarini mustaqil sotishga intilgan usta-hunarmandlar faoliyati noqonuniy ishbilarmonlik sifatida soliq organlari tomonidan ta’qib ostiga olindi.

Samarqand, Marg‘ilon, Qo‘qon, Andijon, Buxoro va Toshkent o‘lkaning hunarmandchilik markazlari hisoblangan. Shahar hunarmandlari XIX asrning ikkinchi yarmida paxta yigirish uchun charx, qo‘lbola to‘quv dastgohlari yaratishgan. O‘sha davrlarda Buxoro zardo‘zligida ishlatilgan Buxoro barquti — baxmali joydor (jaydan), Qarshi olachasi ana shunday dastgohlarda to‘qilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiyadan sanoat mahsulotlarining keltirilishi mahalliy hunarmandlarni inqirozga uchratdi. Hunarmandlar ming mashaqqatlar bilan ishlab chiqargan mahsulotlarini fabrika mahsulotlaridan sifati pastligi tufayli ularni arzon-garovga sotardilar. Shunday qilib, xonavayron bo‘lgan hunarmand - kosiblarning soni ortib borgan.

Muzeyda gul bosilgan gazlamalar – XIX asrning oxirgi o‘nyilliklari astarchit matolarning namunalari va bosma naqshlarni solishda ishlatiladigan o‘yma yog‘och qoliplari kolleksiyalari ham uchraydi. XX asr boshlarida fabrika matolarining keng tarqalishi tufayli gul bosilgan matolarga talab kamayib ketgan. Hozirda uning muzeydagi namunalari o‘zbek naqsh solish ijodiyotining qadimiy usuli qanchalik rivojlanganligidan darak beradi. Uning an‘analari XX asrda chitgarlik san’atiga mansub donali bosma mahsulotlar = yopinchiq, kashtalar, dasturxonlarda yaqqol aks

etgan. Ularning qadimiy nusxalari o'zbek matoga gul bosish san'atining 150 yillik tarixidan darak beradi.

Yarim ipak va ipak matolar kiyim-kechaklar, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa mahsulotlarda aks etgan. Ular ushbu matolarning barcha texnologik va ornamental xususiyatlari hamda ularning mahalliy turlarini namoyon etadi. Ular orasida tafta (yarim ipak, reps) yakrang, yo'l-yo'l va abr naqshli atlas matolari ajralib turadi. Ko'p hududlarda beqasab (beqasam) deb nom olgan matolar keng tarqalgan bo'lib, Buxoro, Qarshi hududlarida mahalliy matolarga xos chipor rangi tufayli bu mato olacha deb nomlanadi.

Beqasam ham har xil markazlarda ishlab chiqarilishi va ishlatilishiga qarab yo'l-yo'l naqshlarining rangbarangligi bilan ajralib turgan. Masalan, har xil keng va tor yo'llar Buxoro matolari uchun xos bo'lsa, Farg'ona va Toshkentda to'q rangli tor yo'lli, Xorazmda qizil alvon tusli, Qarshida bosiq va turfa rangli matolarda namoyon bo'lgan. Qarshining yarim olachasi haqida S.M.Dudin shunday yozgan: "Och va hamohang rangli benihoya chiroyli matodan asosan cho'ponlar tikiladi, Buxoro tasarrufidagi bu shaharlarda va Samarqandda bunday cho'ponlar ko'zni quvnatadi.

Abr naqshli matolar o'zining badiiy ifodaligi bilan ajralib turadi. Uning asos iplari to'qish oldidan kashta bog'lash va bo'yash orqali hosil qilishgan. Naqshlarda turli buyumlar, o'simliklar, geometrik va zoomorfik shakllar tayyor mato ustida xuddi bulut ("abr" - bulut) singari suzib yurgandek ko'rinadi. Shu bois ushbu uslubni "abrbandi" deb atashgan (xalqaro to'qimachilik amaliyotida – "ikat"). Abr matolari butun mintaqada ommalashgan, garchi zamonaviy o'zbek milliy matolarida ornamental texnika saqlanib qolgan bo'lsa-da, ular XIX oxirida xalq amaliyoti san'atining yo'qolib borayotgan turlari sifatida kolleksiyachilar e'tiborini tortgan.

Xalq irimlariga ko'ra ipak sehrli xususiyatga ega bo'lgani bois, undan muqaddas va himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlari - ayollar va bolalarining kiyimlarida va jamiyatning yuqori tabaqalari, shuningdek, sirli kuchlar ximoyasiga ehtiyoj sezadigan odamlar uchun ipak matolaari, ko'pincha ichki astar yoki ot yopinchi'gi, erkaklarning kundalik buyumlarida ko'p foydalanilgan.<sup>1</sup>

Baxmal ham hashamdor matolar sirasiga kirgan. 1990-yillarda uni faqat Buxoro to'qimachilari ishlab chiqargan. Buxorolik hunarmandlar yakrang, yo'l-yo'l va abr naqshlariga ega ipak va yarim ipak baxmallar to'qiganlar. Shahar aholisining eng yuqori tabaqasining barcha vakillari baxmaldan kiyim kiyib yurishgan. O'rta tabaqadagilar orasida uni faqat ayollar va bolalar kiyganlar. Hunarmandlar va quyi

---

<sup>1</sup> Rossiya etnografiya muzeyi. O'zbekiston madaniy merosi. Toshkent 2020y.

tabaqa vakillaridan faqat bolalar uchun bunday matodan liboslar tikilgan. 1900-yillarga kelib, Rossiyaning fabrika baxmallari kirib kelgach, hunarmandchilik ustaxonalarida ishlab chiqarish inqirozga yuz tuta boshlagan. Rus etnografik muzeyi to‘plamlari XIX asrning oxirlarida mashhur Buxoro baxmalining har xil turlari va namunalari haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ular orasida baxmal jiyaklar bilan tikilgan chimildiq alohida qimmatga ega. Yakrang baxmal matolaridan tikilgan erkaklar cho‘ponlari, zardo‘zlik bilan bezatilgan ot yopinchiqlari ham muzey to‘plamida alohida o‘rin tutadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Rossiya etnografiya muzeyi. O‘zbekiston madaniy merosi. Toshkent 2020y.
2. H.H.Kamilova, Z.I.Rahimova, U.S.Raxmatullayeva. O‘zbek milliy libosi va an’anaviy qadriyatlar. Monografiya Toshkent 2018y
3. Society.uz
4. <http://kronk.spb.ru/library/ierusalimskaya-aa-1992>.